

О‘QITUVCHILARDA PSIXOLOGIK KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM MASALALARI

Matnazarova Fotima Maqsudovna

*Xorazm viloyati Xonqa tumani 52-sonli
umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi*

Nazarova Karomat Otaboy qizi

*Xorazm viloyati Xonqa tumani 20-sonli
umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘qituvchilarda psixologik ko‘nikmalarni shakllantirishning ahamiyati, uning ta‘lim jarayonidagi o‘rni hamda samarali pedagogik faoliyatni tashkil etishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, o‘qituvchining emotsional barqarorligi, muloqot madaniyati va o‘quvchilar bilan ishlashdagi psixologik yondashuvlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi, psixologik ko‘nikma, muloqot, emotsiya, pedagogika, stress, motivatsiya, kasbiy rivojlanish.

KIRISH

O‘qituvchi kasbi nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning shaxs sifatida shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatishni ham o‘z ichiga oladi. Shu sababli o‘qituvchilarda psixologik ko‘nikmalarni shakllantirish ta‘lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Psixologik ko‘nikmalar — bu o‘qituvchining o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish, ularning psixologik holatini tushunish va turli pedagogik vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatidir. Bunday ko‘nikmalar o‘qituvchining kasbiy mahoratini oshiradi.

O‘qituvchilarda shakllanishi zarur bo‘lgan asosiy psixologik ko‘nikmalardan biri — samarali muloqot qilish qobiliyatidir. Ochiq, samimiy va hurmatga

asoslangan muloqot o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va sinfda ijobiy muhit yaratadi. Shuningdek, emotsional barqarorlik muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi turli vaziyatlarda o'z his-tuyg'ularini boshqara olishi, stressli holatlarda ham muvozanatni saqlashi lozim. Empatiya, ya'ni o'quvchilarning ichki kechinmalarini tushuna olish qobiliyati ham muhim ko'nikmalardan biridir. Bu o'qituvchiga har bir o'quvchiga individual yondashish imkonini beradi.

Bundan tashqari, muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmasi o'qituvchining kundalik faoliyatida zarur hisoblanadi. Nizolarni to'g'ri boshqarish va adolatli qaror qabul qilish sinfdagi muhitni barqarorlashtiradi.

O'qituvchilarda psixologik ko'nikmalarni shakllantirish uchun treninglar, seminarlar va amaliy mashg'ulotlar samarali vosita hisoblanadi. Shuningdek, o'z ustida ishlash, tajriba almashish va refleksiya jarayoni ham muhim rol o'ynaydi.

Pedagog faoliyatida psixologiyani o'rni beqiyosdir. Chunki har bir pedagog dars o'tish jarayonida o'quvchilarining individual psixologik xususiyatlarini bilishi, yangi mavzuni tushuntirayotganda ham umumpsixologik qonuniyatlarni hisobga olgan holda darsni tashkil etishi ta'limning sifatiga ijobiy ta'sir etadi. Hozirgi jamiyatimizda o'qituvchining mustaqil ravishda bilimlarni egallab, o'z malakasini oshirib borishi bir tomondan o'qituvchilik faoliyatining borgan sari naqadar muvaffaqiyatli borayotganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan muhim vazifa ekanligidan dalolat beradi. Chunki bu kechiktirib bo'lmas jarayon shaxsni intellektual qashshoqlikdan qutqarib qoladi. Psixologik nuqtayi nazardan o'qituvchi doimiy ravishda o'z bilimlarini oshirish bilan shug'ullanishi zarurdir. Chunki o'qituvchilik mehnatining asosiy xususiyati ham shudir. Pedagog har doim odamlar orasida bo'larkan, u birinchidan, odamlarni ko'pdan beri qiziqtirib kelayotgan haqiqatni o'z qarashlari bo'yicha to'g'ri tushuntirib berishi lozim. Albatta, o'qituvchidagi bu tariqa qarashlar ko'p yillar davomidagi mehnat va hayot faoliyati jarayonida shakllanadi; ikkinchidan, o'qituvchining o'zi axborotlar olish uchun o'quvchilarga nisbatan cheklangan vaqt imkoniyatiga ega; uchinchidan, u o'ta tor

doiradagi tengqurlari bilangina muloqotda bo'lish imkoniyatiga ega bo'lib, ko'pincha o'z kasbiga xos qiziqishlar bilangina cheklanib qoladi.

Ta'limning barcha ko'rsatkichlari, Z.I.Kalmikovaning ta'kidlashicha, anglash tezligi, yangi vazifalar hal qilinishiga erishish mumkin bo'lgan aniq ma'lumotlar hajmi, uni bevosita hal qilishdagi bosqichlar soni, natijaga erishishga yordam beruvchi ma'lumotlar miqdori, shuningdek, masalani hal qilish uchun sarflangan vaqt miqdori, o'z-o'zining bilimini oshirish qobiliyati, ishchanlik va chiniqqanlik darajasiga bog'liq. O'qituvchining mustaqil bilim egallashi deganda, uning o'z bilimlarini doimiy ravishda kasbiy va umummadaniy axborotlar bilan to'ldirib, o'zining individual ijtimoiy tajribasini keng miqyosda doimo yangilab borishi tushuniladi.

Odatda aksariyat o'qituvchilar mustaqil bilim egallash zarurligini tushungan holda, undan muvaffaqiyatli foydalanadilar. Buning motivlari odatda pedagogik faoliyat jarayonida o'qituvchi oldida yuzaga keladigan muammolarni anglab olish natijasida shakllanadi. Ko'p hollarda bunday motivlar "o'qituvchilarni qanday o'qitib va qanday tarbiyalash kerak?" degan xohish-istaklar tariqasida, fanning oxirgi yutuqlari, o'zining pedagogik mahoratini takomillashtirish ehtiyoji tug'ilishi munosabati bilan shakllana boradi. Shu bilan birga yaqqol ko'zga tashlanib turgan ayrim hollardan ko'z yuma olmaymiz. Masalan, o'qituvchilar ommasining ma'lum qismi mustaqil izlanishda bo'lib, o'z bilim saviyasini oshirish bilan faol shug'ullanmaydi, malakasini oshirishga intilmaydi, ba'zilar muayyan bilimlar sohasida taraqqiyotdan butunlay ortda qolmoqdalar. Bunday o'qituvchilar o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim va tarbiya taraqqiyotiga jiddiy zarar keltiradilar. Bu muammoni hal etishda asosiy vazifa malaka oshirish tizimi zimmasiga tushadi.

Bu borada hazrati Bahouddin Naqshband "Chaqmoq tosh qo'limizga berilgan, faqat harakat qilish kerak, toki natija hosil bo'lsin" deb ta'kidlaganlar. Bu fikr bilan u ijtimoiy tarbiyaning o'rniga ishora qiladi, to'g'ri tarbiyaning mohiyatini, uning samarasini aniq o'xshatishlar bilan asoslab beradi. Hozirgi zamon ilm-fan taraqqiyotini buyuk allomalar yaratgan bir necha qimmatli asarlarisiz tasavvur qilib

bo'lmaydi. Bu nodir asarlar bir necha asrlar ilgari yaratilgan bo'lsa-da, o'z qimmatini yo'qotgan emas.

O'qituvchining o'rni va uning vazifalari o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ishiga jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tibor qaratilishining naqadar muhim ahamiyatga egaligi bilan aniqlanadi. "...O'qituvchi, — deydi Abu Nasr Forobiy, — aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur". U o'z fikrini davom ettirib: "O'qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o'xshaydi, shu sababli o'qituvchi eshitgan va ko'rganlarining barchasini eslab qolishi, o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini chiroyli ifodalab berishni bilmog'i, shu bilan birga o'z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo'lmog'i lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi",— deb ta'kidlaydi.

Zamonaviy maktab o'qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O'qituvchi — sinfdagi o'quv jarayoni tashkilotchisidir. O'qituvchi o'quvchilar uchun dars payti, qo'shimcha darslarda va shu bilan birga darsdan tashqari hollarda ham kerakli maslahatlar berishda bilimlar manbayidan biridir. Ko'pchilik o'qituvchilar sinf rahbari vazifasini bajarib, tarbiya jarayoni tashkilotchilari bo'lib hisoblanadilar. Zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy psixolog bo'ymasligi mumkin emas. Chunki u o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro ijobiy munosabatlarni yo'lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir. Ma'lumki, pedagogik faoliyat — kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. O'qituvchi jamiyat tomonidan qo'yilgan talablar bilan bir qatorda o'z faoliyatida, tevarak-atrofidagi kishilar, maktab ma'muriyati, hamkasblari, o'quvchilar va ularning otaonalari undan nimalarni kutishini ham esdan chiqarmasligi lozim. O'qituvchining o'z ishidan nimanidir kutayotganligini bilishining o'ziyoq muhim ahamiyatga egadir, mana shu tariqa kutishlar, garchand jamiyat tomonidan o'qituvchiga qo'yiladigan talablarga mos kelsa-da, o'ziga xos

xususiyatlarga ega bo'ladi. Lekin bu talablar hamma vaqt ham bir-biriga mos kelmasligi mumkin.

Psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, xalq ta'limi bo'limlari va maktab direktorlari o'qituvchining ayrim xislatlari naqadar muhimligini har xil baholaydilar. Jumladan, xalq ta'limi bo'limlarining mudirlari o'qituvchidan birinchi navbatda o'z fanini yaxshi bilishini va dars berish metodikasini mukammal o'zlashtirishini talab qilsalar, maktab direktorlari o'qituvchiga qo'yiladigan bunday talablarni uchinchi o'ringa qo'yadilar. Shu bilan birga xalq ta'limi bo'limlarining mudirlari o'qituvchilarning o'quvchilar va ota-onalar, maktab jamoasi bilan qanday muloqotda bo'lishni bilishini naqadar ahamiyatga ega ekanligiga unchalik e'tibor bermaydilar. Maktab direktorlari esa, bunday xislatlarni o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar ichida birinchi o'ringa qo'yadilar. Bo'lajak pedagog shaxsiga bir qator jiddiy talablar qo'yiladi. Ularni asosiy, ya'ni uni egallamasdan turib, yuqori malakali o'qituvchi yoki tarbiyachi bo'lib yetishish mumkin bo'lmagan va ikkinchi darajali, ya'ni bevosita pedagogik faoliyati uchun emas, balki uning shaxs sifatida shakllanishi va shaxsiga ta'lim-tarbiya berishida muhim bo'lgan talablarga ajratish mumkin. Bosh, asosiy talablar singari, ikkinchi darajali talablar ham pedagogning faoliyati psixologiyasiga ya'ni, uning muloqoti, qobiliyati, bilimi, malaka va ko'nikmasi, mahorati, bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish uchun zarur bo'lgan sifatlarga bog'liqdir. Asosiylari orasida ham, qo'shimcha psixologik xossalar ichida ham o'zgarmas, ya'ni har bir davrda, vaqt va xalqlarda doimo o'qituvchi va tarbiyachilar uchun, malakali pedagoglar uchun zarur bo'lgan hamda o'zgaruvchan, ya'ni muayyan davr ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti talablaridan kelib chiqadigan, jamiyat qaror topgan sharoitda yashaydigan va pedagog ishlaydigan muhit talablaridir.

Pedagogga qo'yiladigan asosiy, bosh va o'zgarmas talablar bolalarga bo'lgan mehr, pedagogik faoliyat, o'zi ishlaydigan soha bo'yicha maxsus bilim, keng fikrlay olish, pedagogik intuitsiya, yuqori saviyada rivojlangan tafakkurga, chuqur bilimga, madaniyat va yaxshi xulqqa ega bo'lish, bolalarni o'qitish va tarbiyalashning turli

uslublaridan mohirona foydalana olishni bilishdan iborat. Yuqorida keltirilgan xislatlarning birortasisiz muvaffaqiyat bilan pedagogik ish olib borish mumkin emas.

Pedagog uchun qo'shimcha, lekin nisbatan turg'un talablar qatoriga kirishuvchanlik, artistlik, shodon xulq, yaxshi did-farosat va boshqalarni kiritish mumkin. Bu xususiyatlar eng asosiy o'rinda turmasa-da, ammo o'qituvchi faoliyati uchun katta yordam beradi. Bu hamma xossalar tug'ma qobiliyat emas. Ular pedagogning muntazam mehnati, shuningdek, o'z ustida tinmay ishlashi natijasida egallanadi. Bosh va ikkilamchi pedagogik xossalar jamlanib, pedagogning shaxsiyatini aniqlaydi, shu jihatlar kuchi bilan har bir o'qituvchi qaytarilmas va o'ziga xos shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablardan eng muhimi o'qituvchining shaxsi va uning kasbi bilan bog'liq xislatlariga qaratilgan. Jamiyatning o'qituvchilik kasbiga qo'yadigan asosiy talablari quyidagichadir:

— shaxsni ma'naviy va ma'rifiy tomondan tarbiyalashning, milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boyliklarning mohiyatini, bolalarni mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashni bilishi, o'z Vatani, tabiatga va oilasiga bo'lgan muhabbati;

— keng bilim saviyasiga ega boiishi, turli bilimlardan xabardor boiishi;

— yosh, pedagogik-psixologiya, ijtimoiy psixologiya va pedagogika, yosh fiziologiyasi hamda maktab gigiyenasidan chuqur bilimlarga ega bolishi;

— o'zi dars beradigan fan bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lib, o'z kasbi, sohasida jahon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lishi;

— ta'lim va tarbiya metodikasini egallashi;

— o'z ishiga ijodiy yondashishi;

— bola psixik taraqqiyotini, uning ichki dunyosini tushuna olishi;

— pedagogik texnikani (mantiq, nutq, ta'limning ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo'lishi;

— o'qituvchining o'z bilim va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.

Har bir o'qituvchi ana shu talablarga eng yuqori darajada mos keladigan bo'lishga intilishi kerak. O'qituvchiga jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar, turli xildagi ijtimoiy kutishlar, pedagogning individualligi, uning shu tariqa talablarga javob berishga subyektiv tayyorligi muayyan o'qituvchining pedagogik faoliyatga naqadar tayyorligidan dalolat beradi. Jamiyatning muayyan tarixiy davrida, belgilangan vaqt va belgilangan ish joyiga xos bo'lgan pedagogning asosiy va ikkinchi darajali o'zgaruvchan xususiyatlari haqidagi masalani hal qilish birmuncha murakkabdir. Jamiyatda ro'y berayotgan yangi shart-sharoitlar, ta'lim va tarbiya sohasida yangi maqsad va vazifalarni qo'yadi. Ular o'z navbatida o'qituvchi va tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan talablarni belgilab beradi. Bu talablarni o'z vaqtida va aniqroq aniqlash uchun quyidagilarni bajarish lozim:

O'quvchini hozirgi zamon talabiga javob beradigan, erkin fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirish uchun pedagogning o'zi mustaqil fikrlovchi, yuqori saviyadagi bilimli, dunyoqarashi keng bo'lmog'i va bu xususiyatlarni muntazam rivojlantirib bormog'i lozim. Ota-onalar o'qituvchining ish staji va yoshi qanday bo'lishidan qat'i nazar undan farzandlarini tarbiyalash va o'qitish mahoratini kutadilar. O'quvchilar esa o'qituvchilarni uch xil xislatlari bo'yicha xarakterlab beradilar. Jumladan, birinchidan, o'qituvchining odamgarchiligi, adolatliligi, sof vijdonliligi, bolalarni yaxshi ko'rish xislatlari; ikkinchidan, o'qituvchining sezgirliigi, talabchanligi bilan bog'liq tashqi xislatlari va xulq-atvoriga qarab; uchinchidan, o'qituvchining o'z fanini bilishi, uni tushuntira olishi kabi ta'lim jarayoni bilan bog'liq xislatlariga qarab xarakterlab beradilar. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga qo'yiladigan talablar bilan birga, o'qituvchi shaxsi va uning faoliyatiga nisbatan qo'yiladigan ijtimoiy talablar ham o'sib bormoqda. O'qituvchiga jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar, turli xilda ijtimoiy kutishlar, pedagogning individualligi, uning shu tariqa talablarga javob berishga subyektiv tayyorligi muayyan o'qituvchining pedagogik faoliyatga naqadar tayyorligidan dalolat beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchilarda psixologik ko'nikmalarni rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishning muhim omilidir. Bu ko'nikmalar orqali o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarni qo'llab-quvvatlovchi va yo'naltiruvchi shaxsga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. — T.: Fan. 2003.
2. Халперн Д. Психология критического мышления. Питер. 2000.
3. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
4. Югай А.Х., Мираширова Н.А. “Общая психология” – Ташкент 2014.
5. Дружинина В.. “Психология “. Учебник. “Питер”, 2003.
6. Sulaymonov, J. B. (2021). IBN XALDUNNING „MUQADDIMA “ASARIDA JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 732-737.